www.peshqadamkarvoni.uz

Peshqadam Karvoni

Published: January 30, 2026 | Read More Articles | Check for updates

Shayx Muhammad Sodiq MUHAMMAD YUSUF
O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasining sobiq raisi

IMOM TERMIZIYNING 1200 YILLIGINI NISHONLASH XALQARO ISLOM ANJUMANI OCHILISHIDA SO‘ZLANGAN NUTQ

(Hijriy 1411 sana, 24-safar (1990-y. 14-sentyabr)

Allohga hamd bo‘lsin, U O‘zining tanlangan bandalarining ko‘ngillarini qadim va mo‘jizakor kalomining ilmlari bilan yoritdi, valiylarini esa O‘zining muborak va o‘zidan avvalgi kitoblarni ham qamrovchi Qur’on kitobi ma’rifati bilan sharaflantirdi. U O‘zining sevikli bandalarining ruhlariga hikmatli zikrining ma’rifat fathlari bilan hayot baxsh etdi. Va Uning Payg‘ambariga salavotu salom bo‘lsin. U odamlarga ularga nozil qilingan oyatlarni bayon etdi va ularni to‘g‘ri yo‘lga hidoyat qildi. Shuningdek, uning ahli bayti va sahobalariga ham salavotu salom bo‘lsin. Ular Payg‘ambarning ishlari, hayotlari va sunnatlarini yetkazishda va dinni odamlarga tarqatishda yo‘lchi yulduzlar bo‘ldilar.

Allohning eng afzal bandasi, Muhammad Rasulullo (sollallohu alayhi va sallam)ning sunnatlarini mujassam etgan, Islom ummatida e’tirof etilgan olti sahih hadis to‘plamlaridan birini yozgan buyuk muhaddis, Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy (roziyallohu anhu)ning xotirasini o‘rganish bugungi kun talabidir. Imom Termiziy Islom ummati avlodlari uchun beqiyos ilmiy va ma’naviy meros qoldirgan. Bu meros Rasulullo (sollallohu alayhi va sallam)ning muborak so‘zlaridir. Alloh taolo u zotga qisqa, lekin ma’nolarga boy so‘z (javome’ul kalim) va yorqin hikmatlar ne’matini bergan. Shu sababdan, Payg‘ambar (sollallohu alayhi va sallam)ning so‘zlari eng sharafli va to‘liq hikmatlarning jamidir. U Allohning kalomidan keyingi eng ulug‘ va eng aniq manba va hukm chiqarishdagi ikkinchi asos hisoblanadi. Chunki Qur’on ilmlari, Islom aqidalarining barchasi va shariat hukmlari to‘laligicha Rasulullo (sollallohu alayhi va sallam)ning bayonlariga suyanadi. Agar ular ana shu to‘g‘ri mezon bilan o‘lchanmasa va u zotning haq yo‘lidagi so‘zlari bilan taqqoslanmasa, u hukmlarga ishonch bo‘lmaydi va e’tibor qilinmaydi.

Maqsad Imom Termiziyning shaxsiyati, hayoti, ilmiy faoliyati va muborak sunnatni har qanday noaniqlik va to‘qimaliklardan sof va haqiqiy holda ummatga yetkazishdagi buyuk xizmatlarini o‘rganishdir.

Ammo hozir, hadis ilmi, uning tarixi va ahamiyati haqida so‘z boshlashdan avval, Islom dinining “Movarounnahr” deb atalgan hozirgi Markaziy Osiyo hududida istiqomat qiluvchi musulmonlar yashaydigan o‘lkaga qay tarzda yetib kelgani haqida qisqacha tarixiy ma’lumot berish lozim.

Shundan keyin bu hududlarda islom ilmlari tahsili boshlandi. Keyin esa oltin davr keldi bu davrda buyuk muhaddis va faqih, Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tug‘ildi va ulg‘aydi. Yana bu davrda hadis va fiqh sohasida ko‘plab ulug‘ zotlar yetishib chiqdi: imom Muhammad Shayboniyning shogirdi Abu Ja’far Kabir, Imom Buxoriyning ustozi va shayxi

Muhammad ibn Bashshar; Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy; Yusuf Firabriy; Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy; Ishoq ibn Rohuyah kabi katta ustozlar va buyuk ulamolar turli mamlakatlarni kezib, dinni o‘rganish va mashhur imomlardan hadis eshitish bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Shuningdek, bu oltin davrda va undan keyin islom dinining ko‘plab ulug‘ namoyandalari yetishib chiqqan. Ular qatorida Movarounnahrning buyuk muhaddisi, mo‘tabar imom Haysam ibn Kulayb Shoshiy; Abu Bakr Muhammad ibn Ismoil Qaffol Shoshiy; “Sunan” muallifi Imom Dorimiy Samarqandiy; katta alloma Ibn Hibbon Samarqandiy; Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy; Bahouddin Naqshband; Abul Qosim Muhammad ibn Umar Zamaxshariy; Abu Mansur Maturidiy Samarqandiy; Najmiddin Abu Hafs Samarqandiy; Abul Lays Samarqandiy; Burhonuddin Marg‘inoniy; Xoja Ahmad Yassaviy; “Tafsir al-Madorik” muallifi Abulbarokot Abdulloh ibn Ahmad Nasafiy; Ahmad Abul Abbos ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniy; Yusuf Sakkokiy al-Xorazmiy; Sa’duddin ibn Umar Taftazoniy; Ubaydulloh Xoja Ahror Valiy Shoshiy Samarqandiy; Abdulxoliq G‘ijduvoniy; Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy. Shuningdek, bu yurtda qomusiy olimlardan: Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek, Alouddin Ali Qushchiy, va ulardan boshqa nomlari bugungacha butun dunyoda shon bilan tilga olinadigan olimlar yetishib chiqqan va Qiyomat kunigacha ham mangu qoladi inshaalloh.

Buyuk muhaddis Imom Termiziyning ilmiy merosining ahamiyatini yodga olish va anglash uchun ozgina o‘tmishga nazar solish, ya’ni hadis ilmlari, uning asosi va roviylari tarixi haqida so‘z yuritish lozim. Ammo, eng avvalo, nabaviy sunnat sharif tushunchasining mohiyatini aniq bilib olish zarur.

Yaqqol ma’lumki, barcha payg‘ambarlar va elchilarning da’vati yagona asosga, ya’ni bir Zot, bu borliqning yaratuvchisi Alloh taoloni tanitish va Unga iymon keltirish asosiga qurilgan bo‘lib, insonlarni Unga munosib ibodat qilishga chaqirish edi. Bu ibodat orqali odamlar saodatga erishadilar va to‘g‘ri yo‘l “sirotul mustaqim”ga hidoyat topadilar.

Shuningdek, payg‘ambar Muhammad Mustafo (sallallohu alayhi vasallam)ning risolati ham insonlar qalbiga tavhid va iymon urug‘ini ekish, ularni solih amallar qilishga, insoniy fazilatlarni kasb etishga, oliy xulq va odob qoidalariga rioya etishga o‘rgatishga qaratilgan edi. Buning sababi ular yaxshilikka buyuruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi, Alloh va Rasuliga itoat qiluvchi “insoniyat uchun chiqarilgan eng xayrli ummat” bo‘lishlari uchundir. Biroq, ummatning ikki dunyodagi saodati Alloh taoloning amrlariga amal qilish va Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)ning sunnatlariga ergashishlariga bog‘liqdir. Payg‘ambarimiz (sallallohu alayhi vasallam) o‘z ummatiga vasiyat sifatida shunday deganlar: “Ey odamlar! Men sizlarga ikki narsani qoldirdim: agar ularga mahkam yopishsangiz, hech qachon adashmaysiz. Ular Allohning Kitobi va Uning Payg‘ambari sunnatidir”, (Bayhaqiy rivoyati, 20336-h).

Mana shu ilohiy ko‘rsatmadan kelib chiqib, Islom ulamolari, sahobalar davridan boshlab, hadislar, sunnatlar va osorlarni jamlash, yodlash va odamlarga yetkazishga katta ahamiyat berdilar. Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) zamonida shariat qonunchiligining ikki asosiy manbai bor edi: Allohning Kitobi Qur’on va Payg‘ambarning sunnati. Vahiy nozil bo‘lar, Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) uni insonlarga yetkazar edilar. Shu sababli u zot ummatning barcha ishlarida qozilik, muftiylik, hatto iqtisodiy va siyosiy masalalarni tartibga solishda oliy manba va so‘nggi hukm chiqaruvchi zot edilar. Bu holat to Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) olamdan o‘tgunlaricha davom etti. U zot vafot etgach, vahiy uzildi, va ummatning qo‘lida faqat Qur’on va sunnat qoldi. Natijada sahobalar va tobeiynlar esa Allohning quyidagi amriga itoat etib, Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)ning sunnatlariga mahkam yopishdilar. Alloh taolo shunday degan:**“Rasul sizga nimani bersa, o‘shani olinglar va nimadan qaytarsa, o‘shandan qaytinglar”**, (Hashr surasi, 7-oyat). Shuning uchun sahobalar va tobeiynlar sunnatga mahkam yopishish, Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)ning yo‘llariga qat’iy ergashish, u zotning izlarini diqqat bilan kuzatish va hukmlarini to‘liq

bajarishda beqiyos ibrat ko‘rsatganlariga guvoh bo‘lamiz. Natijada ular hadislarni asrash, yodlash va sof holda ummatga yetkazishning mukammal tizimini barpo qildilar, va shu tariqa sunnatni muhofaza qilishda va Payg‘ambar yo‘liga ergashishda ummat uchun eng go‘zal namuna bo‘ldilar.

Sahobalar Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)dan hadis rivoyat qilishda juda ehtiyotkor bo‘lganlar. Ular xato qilishdan va sunnat ichiga qandaydir tahrif (o‘zgarish) aralashib qolishidan qo‘rqar edilar. Chunki sunnat shariatning Qur’oni Karimdan keyingi ikkinchi manba’sidir. Tobeiynlar va ularning shogirdlari ham hadisni qabul qilishda juda ehtiyotkor bo‘lishda sahobalardan kam bo‘lmaganlar. Ular roviy haqida qalblarida itminon(hotirjamlik) hosil bo‘lgunicha va hadisni olish va qabul qilish uchun zarur bo‘lgan barcha shartlar mavjudligini aniq bilgunlaricha tekshirishar edilar.

Islom butun Arab yarim oroliga yoyilganidan keyin Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) olamdan o‘tdilar. Bu yurtlardan Islom da’vati uchun markazlar tashkil topdi, hidoyat nurlari butun olamga tarqala boshladi va Islom fathlari kengaydi. Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) vafotlaridan so‘ng Islom davlati Arab yarim orolidan tashqariga ham yoyildi. Islom lashkarlari safining oldida Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)ning sahobalari bo‘lgan. Ular har bir yurtga kirganlarida masjidlar qurishar, o‘sha yerda yurt ishlarini boshqarish, Islomni tarqatish va aholiga Qur’oni Karim hamda Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) sunnatlarini o‘qitishlari uchun ba’zi sahobalar va tobeiynlarni qoldirib ketishar edi. Shunday qilib, turli shahar va viloyatlarda Islom ilmlari tarqaladigan ko‘plab ilmiy markazlar vujudga keldi. Sahobalar va tobeiynlar qo‘li bilan fath qilingan va keyin ilmiy markazlarga aylangan yurtlar orasida Buxoro, Samarqand, Shosh (Toshkent), Marv, Termiz, Xorazm, Nasaf va boshqa Movarounnahr shaharlari (hozirgi Markaziy Osiyo shaharlari) ham bor edi. Ana shu yurtlarda Islom olamining buyuk muhaddislari yetishib chiqqan: Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, Abdulloh ibn Muborak Marvaziy, Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy, Muhammad ibn Aliy Hakim Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurrahmon Doramiy, Haysam ibn Kulaym Shoshiy va boshqalar.

Sahobalar ilm darajasi jihatidan turlicha bo‘lganlar. Har bir sahobada Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) aytgan barcha hadislar mavjud bo‘lmagan. Shu sababli hadislarni jamlash va ularni eshitish maqsadida ilm safarlari boshlangan. Tobeiynlar va ularning izdoshlari ham hadis eshitish yoki eshitganlarini tasdiqlash uchun turli shahar va yurtlarga safar qilganlar. Shuning uchun ko‘plab tobeiynlarning sahobalarni izlab, uzoq masofalarni bosib o‘tib, bir yoki ikki hadis eshitish uchun kecha-kunduz safar qilganlari ma’lum. Shu tariqa ayrim sahobalar turli mamlakatlarda ilmiy mavqe’ qozonganlar, ularning shogirdlari ham ustozlarining uslubini meros qilib oldilar, va ularning yo‘llaridan bordilar, ularning o‘rnini egallab, ilm bayrog‘ini yuqori ko‘targanlar.

Hadis yozish masalasiga kelsak, Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)ning vahiy yozuvchilari bo‘lgani kabi, zakot (sadqa) ishlari, qarz berish va savdo-sotiq, shuningdek, turli tillarda yoziladigan maktublar uchun ham yozuvchilari bor edi. Biroq hadislar Nabiy (sallallohu alayhi vasallam) zamonida umumiy tarzda yozib chiqilmagan. Bu esa yo ularning kuchli xotirasi va zehnining o‘tkirligi hamda yozuv vositalarining kamligi sababli bo‘lgan, yoki hadis yozishdan qaytarish haqidagi ko‘rsatmalar tufayli bo‘lgan. Chunki bu yozuvlar Qur’oni karim bilan aralashib ketishidan yoki ularni Qur’on o‘qish va yod olishdan to‘sib qo‘yishidan qo‘rqishgani uchun bo‘lgan edi. Biroq o‘qish va yozishni bilgan, Qur’on bilan hadisni farqlashga qodir sahobalarga yozishga ruxsat berilgan. Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) ba’zi sahobalarga hadis yozishga izn berganlar, chunki u vaqtga kelib Qur’on bilan hadis orasidagi farq aniq bo‘lgani va adashish xavfi yo‘qolgani uchun qalblar hotirjam bo‘lgan edi.

Nabiy (sallallohu alayhi vasallam) vafot etganlaridan keyin sahobalar va tobeiynlar orasida hadis yozuvchilar soni juda ko‘paydi. Ayniqsa, xalifa Umar ibn Abdulaziz roziyallohu anhu davrida bu ishga katta ahamiyat berildi. U hadislarning hofizlari vafot etgach, ulardan biror narsa yo‘qolib ketmasligi yoki haq bilan botil aralashib ketmasligi uchun hadis va sunnatlarni jamlash va

yozishga qattiq e’tibor qaratdi. Shunda har bir yurtdagi ulamolar bu buyuk chaqiriqni sidqidildan qabul qildilar. Ular hadislarni yig‘ish, tekshirish, sahihini zaifidan, haqiqiysini soxtasidan ajratish bilan shug‘ullandilar. Natijada ixtiloflar kamaydi, masala barqaror bo‘ldi va hadislarni yozishning joizligi haqida ulamolar orasida ijmo’ vujudga keldi. Hatto bu ish nafaqat joiz, balki mustahab, ilmni yetkazishi lozim bo‘lgan kishi uchun esa vojibligiga ijmo’ qilindi. Shu tariqa, bu harakat boshlandi. Hadislarni yozish va ilmiy jamlash harakati kundan-kunga rivoj topdi. Bu buyuk ishga halollik, rostgo‘ylik va ehtiyotkorlik bilan tanilgan kishilar bel bog‘ladilar. Ular yotoqdan uzoqlashib, kunu tun daftar va qalamni yordamchi qildilar; shayxlar bilan uchrashish va ilmni og‘izdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olishga juda ahamiyat berdilar. Bu yo‘lda uzoq tunlarni bedorlikda o‘tkazdilar, sahrolar va cho‘llarni bosib o‘tdilar, shahar va o‘lkalarni kezdilar. Ular moliyaviy ta’minotlari va safar vositalari oz bo‘lishiga qaramasdan ilm yo‘lida sayohat qilish va yurtma-yurt kezishda oliy namuna bo‘ldilar. Bu fidokorona harakatlari ularni abadiy zikr etiladigan ulug‘ ulamolar safiga qo‘shdi. Imom Zuhriy va Abu Bakr ibn Hazm avlodidan keyingi davrda Payg‘ambar alayhissalom hadislarini yozib olish keng tarqaldi.

Eng to‘g‘ri fikrga ko‘ra hadislarni birinchi bo‘lib yozgan kishi Abu Muhammad Abdulmalik ibn Abdulaziz ibn Jurayj hisoblanadi, u hijriy 150 yili Makkada vafot etgan. Shuningdek, Yamanda Muammar ibn Roshid, Shomda Abu Amr al-Avzo’iy, Madinada Imom Molik ibn Anas, Kufada Sufyon as-Savriy va Xurosonda (Marv shahrida) Abdulloh ibn Muborak ham va boshqalar hadislarni yozgan ilk muhaddislardan edilar.

Keyin hadis tadvinida yangi bosqich boshlandi, bu faqat Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) ning hadislarini alohida to‘plash edi. Bu ish hijriy ikki yuzinchi yillar boshlarida sodir bo‘ldi. Ana shunday Mualliflarning ba’zilari hadislarni «musnad» shaklida tuzdilar. Masalan, Imom Ahmad ibn Hanbal roziyallohu anhu o‘z «Musnad»ida sahobalarni islomdagi peshqadamligiga ko‘ra tartibladi: avval jannat bashorat berilgan o‘n kishi, keyin Badr ahli, keyin Hudaybiya ahli, so‘ngra Hudaybiya sulhi bilan Fath orasida islomni qabul qilib hijrat qilganlar, keyin Fath kunida islomga kirganlar, keyin kichik sahobalar va oxirida hadis rivoyat qilgan ayollar. Yana boshqa mualliflar esa roviylarni ismlarini alifbo tartibida joylashtirdilar. Masalan, ismining birinchi harfi alif bo‘lganlardan boshlab, keyin ismi ba harfi bilan boshlanganlarni keltirgan va hokazo. Bu uslubni qo‘llaganlarga eng yaxshi misol Abul Qosim Tabaroniy (h. 260-y. vaf.) o‘zining “al-Mo‘jamul Kabir” kitobida, Ishoq ibn Rohuyah (161–238 h.), Usmon ibn Shayba (156–239 h.) va boshqalar. Ular hadislarni jamladilar va isnodlari bilan yozdilar, soxta hadislardan saqlandilar, va har bir hadis uchun turli rivoyat yo‘llarini keltirdilar. Shu orqali ushbu ilmning yetuk muhaqqiqlari hadisning sahih yoki zaifligini, kuchli yoki illatli ekanligini aniqlay oladigan asos yaratdilar. Bu esa har bir talabaga oson bo‘lgan ish emas.

Shunday qilib, ba’zi ulug‘ imomlar faqat sahih hadislardan iborat kitob tuzishni lozim topdilar. Ular hadislarni boblar (mavzular) asosida jamladilar va faqat sahih hadislarnigina kiritdilar. Shu tarzda hadis ilmida mashhur bo‘lgan “olti sahih kitob” vujudga keldi. Bu asarlar tobeiynlarning shogirdlari davrida yozilgan bo‘lib, birinchi bo‘lib bunday kitob yozgan imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (194–256 h.) bo‘ldi. Undan keyin imom Muslim ibn Hajjoj Qushayriy (204–261 h.), Abu Dovud Sulaymon ibn Ash’as Sijistoniy (202–275 h.), Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra at-Termiziy (209–279 h.), Ahmad ibn Shu’ayb Nasoiy (215–303 h.), so‘ngra Ibn Moja asl ismi Abdulloh ibn Muhammad ibn Yazid ibn Abdulloh Qazviniy (207–273 h.) keladilar.

Ana shu olti sahih kitob islom olamida ulkan shon-sho‘hrat qozondi. Bu asarlar har bir davr va har bir yurtda ulamolarning e’tibori va ehtiromiga sazovor bo‘ldi.

Shulardan imom Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy (Alloh undan rozi bo‘lsin va rozi qilsin) haqida qisqacha so‘z.

Imom Termiziy, sahih rivoyatlarga ko‘ra to‘liq ismi Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhok Sulamiy Bўg‘iy, mashhur hofiz muhaddis, “Jome’”, “Kitobul ilal Kabir” va

“Shamoil Nabaviya” asarlarining muallifidir. U zot hadis ilmida e’tiborli imomlardan, ilm va xotirada peshqadam muhaddislardan biri edi.

Imom Termiziy hijriy 209 yilda, boshqa rivoyatga ko‘ra 200 yilda Jayhun daryosi bo‘yidagi Termiz qishloqlaridan bo‘lgan Bug‘ qishlog‘ida tug‘ilgan. U kichik yoshidan ilm izlab chiqqan va bu yo‘lda Iroq, Hijoz, Xuroson hamda boshqa yurtlarga safar qilgan. U yerlarda hadis ilmining ulug‘ imomlari va shayxlaridan ilm olgan. Ulardan hadis eshitgan va rivoyat qilgan. Ularning orasida eng mashhuri Imom Buxoriy bo‘lib, unga shogirt bo‘lib qo‘l ostida ta’lim oldi va undan hadis fiqhini o‘rgandi. Shuningdek, Imom Muslim, Abu Dovud, va ularning ustozlaridan bo‘lgan Qutayba ibn Sa’id, Muhammad ibn Bashshar kabi buyuk roviylardan ham hadis eshitgan. Ko‘plab ulamolar undan hadis rivoyat qilganlar.

Imom Termiziy aniq yodlashi va mukammal rivoyati bilan mashhur bo‘lgan hofiz imomlardan edi. Zamondoshlari uning muhofaza va xotira quvvatlarining naqadar o‘tkirligi haqida guvohlik berganlar. U zot juda taqvodor zohid va parhezkor edi. Ko‘p yig‘laganidan ko‘zlari oqarib, umrining oxirgi yillarida ko‘rmay qolgan edi. Uning yuksak maqomini Imom Buxoriyning quyidagi so‘zi ham tasdiqlaydi: «Men sendan topgan naf, sen mendan olganingdan ko‘ra ko‘proqdir». Ibn Hibbon shunday deydi: “Abu Iso hadislarni jamlagan, yozgan, yod olgan va ulamolar bilan bahs va muhokama qilish orqali mustahkamlagan buyuk muhaddislardan edi”. Boshqa ulamolar esa shunday deganlar: “Buxoriy vafot etgach, uning o‘rniga Xurosonda Abu Isodek ilm, zehn, taqvo va zohidlikda teng kishi qolmadi”. Imom Termiziy 279 h. yili rajab oyining 13-kuni, dushanba kechasi Termizda, yetmish yoshida vafot etdi.

Imom Termiziy hadis, tarix, zuhd, ismlar va kunyalar, va boshqa sohalarda ko‘plab asarlar qoldirdi. Ular ichida eng mashhur asari «al-Jome’», ya’ni «Sunan Termiziy» nomi bilan mashhur bo‘lib, u hadis ilmidagi eng foydali, eng mukammal va takrori kam kitoblardan hisoblanadi. Bu asar “Jome’ut Termiziy” va “Sunanut Termiziy” nomlari bilan butun islom olamida tanilgan.

Imom Termiziy o‘zining mashhur “Sunan” asarida sahih, hasan, zaif, g‘arib va illatli hadislarni roviylari bilan keltirgan hamda har biridagi illatni ochiq bayon qilgan. Shuningdek, u munkar hadislarni ham zikr qilib, ularning nuqsonli jihatlarini izohlagan. U rivoyat qilgan hadislar orasida, barcha muhaddislar tomonidan yolg‘onchilikda ayblanishiga ittifoq qilingan roviydan, sanadi yakka bo‘lgan hadis keltirilmagan. Imom Termiziy har bir hadisni rivoyat qilar ekan, keltirayotgan hadislarning darajasini bayon qilib boradi. Uning uslubida kitobini zaiflashtiradigan hech bir narsa yo‘q. Termiziy hadis, uning illatlari, roviylari va boshqa hadis ilmlari bilan bir qatorda fiqhni ham jamlagan. Buning barchasi uning Sunan asarida yaqqol namoyon. Imom Termiziy shunday degan: “Men bu kitobni tasnif qildim va uni Hijoz, Iroq va Xuroson ulamolariga taqdim etdim, ular undan rozi bo‘ldilar”.

Ulamolarning ijmosiga ko‘ra, “Jome’ut Termiziy” muhaddislar hadisning sahih, hasan yoki zaif ekanini aniqlash, illatlarni ochish, fiqhiy hukmlarni chiqarish, ishonchli roviylarni ajratish va zaif roviylarni bilish uchun va boshqa amaliy ravishda qo‘llagan ilmiy uslubning eng go‘zal namunasi hisoblanadi. Shu sababli bu kitobda boshqa hadis to‘plamlarida uchramaydigan juda ko‘p foydalar jamlangan. Chunki boshqa mualliflar faqat sahih hadislarni jamlash bilan cheklangan bo‘lsalar, Imom Termiziy bu bilan chegaralanmagan va uning kitobi ilmiy jihatdan mustaqil uslubga ega bo‘lgan yagona asar sifatida tanilgan. Bundan tashqari, u zotning asari muhaddislar istilohi (terminologiyasi) ni saqlab qolgan eng qadimiy manbalardan hisoblanadi. U istilohlarda hadis va roviylarga berilgan baholar keltirilgan bo‘lib, bu narsa hadis ilmi qoidalarining Termiziydan ancha oldin mustahkam asosga ega ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, Termiziy ba’zi istilohlarni shunday jamladiki, undan oldingi ulamolar bunday yo‘l tutmagan edilar.

Imom Termiziyning “Jome’” asarining fazilatlari va go‘zalligi haqida ba’zi ulamolar so‘zlaridan Hofiz Ibnul Asir o‘zining «Jome’ul usul» asarida shunday deydi: “Imom Termiziyning Sahih kitobi eng go‘zal, eng foydali, eng yaxshi tartiblangan va eng kam takrorlangan hadis to‘plamidir. Unda

boshqa kitoblarda uchramaydigan foydalar bor. Masalan, muhaddislarning roviylarni aniqlashda tutgan yo‘llari va dalillari zikri, hadisning sahih, zaif yoki g‘arib ekanini bayon etish, roviylarning sifatini bayon qilish (jarx va ta’dil) ilmlari bor”. Jaloluddin Suyutiy «Qutul Mug‘taziy» asarida Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Roshiddan rivoyat qilib shunday deydi: “Termiziyning kitobi hadislarni boblar bo‘yicha saralab keltirgan bo‘lib, bu asosiy birlamchi ilm hisoblanadi. Fiqh esa ikkinchi ilmdir. Hadisdagi illatlarni tahlil qilish, ya’ni sahih va zaif hadislarni ajratish hamda ularning o‘rtasidagi darajalarni bayon qilish uchinchi ilmdir. Sahobalarning ismlari va laqablari to‘rtinchi ilmdir. Roviylarning adolatli yoki zaif(jarohatli) ekanligini baholash beshinchi ilmdir. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamni ko‘rgan va ko‘rmagan, ammo undan hadis rivoyat qilgan roviylarni zikr etish oltinchi ilmdir. Har bir hadisni rivoyat qilgan roviylarning sonini keltirish yettinchi ilmdir. Bular bu kitob umumiy ravishda qamrab olgan ilmlardir. Tafsilotlari esa yanada keng va mukammal. Umuman olganda, bu kitobning foydasi juda ko‘p va manfaati beqiyosdir”.

Hofiz Fathuddin ibn Sayyidun nos esa qo‘shimcha qilib shunday deydi: “Ibn Roshid zikr etmagan yana bir nechta ilmlar ham mavjud: ulardan shoz hadislar sakkizinchi ilm, mavquf (sahobiy so‘zlari) to‘qqizinchi ilm, mudraj (hadisga qo‘shib yuborilgan so‘zlar) o‘ninchi ilmdir. Bular foydasi ko‘p ilmlar hisoblanadi”. Qozi Abu Bakr ibnul Arabiy “Sharhut Termiziy”ning boshida shunday degan: “Alloh qalblaringizni nurlantirsin! Bilinglarki, hadis to‘plamlari orasida Muvatto birinchi asos bo‘lsa, Ju’fiy (Buxoriy)ning Jome’yi ikkinchi asosdir. Barcha keyingi kitoblar, jumladan Qushayriy (Muslim) va Termiziy, shu ikki manbaga suyangan. Uning bayon uslubida halovat, mazmunida nodirlik, tartibida latofat bor. Bundan tashqari u hadislarni isnodi bilan berdi. Unda o‘n to‘rt xil ilm mujassamdir: hadis rivoyati, isnod, sahih va zaifni ajratish, rivoyat yo‘llarni ko‘rsatish, roviylarni baholash, ism va kunyalarni bayon qilish, fiqhiy amalda qo‘llanadigan va tark etiladigan hukmlarni aniqlash, ulamolarning qabul va radd haqidagi ixtiloflarini bayon qilish kabi ishlar jamlangan. Bu ilmlarning har biri o‘z sohasining asosli va javhari hisoblanadi. Uni mutolaa qilgan o‘quvchi go‘zal bog‘larda sayr qilgandek, tinimsiz oqib kelayotgan ilm daryosida bo‘lgandek his etadi”.

Ma’lumki, Imom Termiziyning bu «Sunan» lariga ko‘pgina sharh va izohlar yozilgan. Ular mashhur ulamolar va hadis ilmining mutaxassislari tomonidan amalga oshirilgan. Misol uchun Qoziy Abu Bakr ibnul Arabiy al-Molikiy (464-543 h) ning «Orizatul Ahvaziy» sharhi, Hofiz Muhammad ibn Sayyiddin nos, Zaynudin al-Iroqiy (725-806 x), Hofiz ibn al-Mulaqqin (723-804 h), Abul Faraj al-Bag‘dodiy (706-795 h), Ibn Hajar al-Asqaloniy (773-852 h), Umar ibn Raslon al-Balkiniy 724-805 h), Jaloliddin as-Suyutiy (849-911 h), Shayx Siroj Ahmad as-Saxandiy, Abul Hasan Abdulhodiy as-Sindiy al-Madaniy kabi olimlar yozib qoldirgan sharhlarni keltirish mumkin.

Shulardan ko‘rinib turibdiki, Imom Termiziyning bu asarlariga ulamolar tomonidan juda katta e’tibor berilgan. Zero unda musulmonlarga yetkazish lozim bo‘lgan foyda va fazilatlar mavjuddir. Ularning hammalariga Haq subhanahu va taolo ajru hasanotlar ato aylasin!

Imom Tirmiziyning «Sunan» deb nomlangan asarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, biz unda ibodat, muamulot masalalarini, insoniy hayot muammolarini qulay yo‘l bilan hal qilish yo‘llarini uchratamiz. Sir emaski, hozirgi zamon kishilari oldida muhimdan-muhim cheksiz yangi muammolar vujudga kelmoqda. Ularning ichida asrlar osha hamma xalqlarga ham mavjudligicha qolib kelayotgan bir muammo bor. U ham bo‘lsa ushbu hayotning asosi va garovi sanalmish tinchlikni mustahkamlashdir. Tinchlik bu Allox taoloning eng muhim topshiriqlaridan biridir. Zero usiz hech bir inson asosiy burchi bo‘lmish hayotni va mavjudotlarni saqlab qola olmaydi. Imomi Termiziyning «Sunan» asarlari esa xuddi shu kabi ummatlarini tinch-totuv yashashga, o‘zaro mehr-muhabbatli bo‘lishga, zulm, jangu-jadal, arazlash, hasad kabi sifatlardan uzoq bo‘lishga da’vat qiladigan Rasulullohning (sallollohu alayhi vasallam) muborak hadislari bilan to‘ladir. Quyida Rasuli akram (sallollohu alayhi vasallam) ning hikmatomuz hadisi shariflaridan namunalar keltirmoqchiman, toki Allohdan qo‘rqadigan, oxiratdan umidi bor mo‘min musulmonlar diqqat bilan tinglab janob Rasulullohning (sallollohu alayhi vasallam) ushbu hadislarini rivoyat qiladilar. «Alloh nomi bilan qasamyod etamanki, sizlar to

mo‘min bo‘lmagunlaringcha jannatga kirmaysizlar. O‘zaro mehr-muhabbat hosil qilmagunlaringcha mo‘min bo‘lolmaysizlar. Mehr-muhabbat hosil qilishning yo‘li – o‘rtalaringda salomlashishni keng joriy qilishdir» (Termiziy: bu hadis hasan sahih degan).

Rasulullоh (sallollohu alayhi vasallam) bu so‘zlari bilan salomlashish odatini mehr-muhabbat manbai deb hisobladilar. O‘zaro mehr-muhabbatli bo‘lishni esa hamma amallar va ibodatlarning asosi bo‘lmish iymonning garovi deb talqin etdilar.

Rasuli akram (sallollohu alayhi vasallam) ummatlarini barcha yaxshiliklarni amalga oshirishga buyurib, faqat moddiy mablag‘ sadaqa qilish yo‘li bilangina Allohga yaqinlik hosil qilish mumkin emasligi, balki o‘zidan boshqa insonlarga turli xil yaxshilik qilish yo‘li bilan ham sadaqaning savobini topish mumkinligini bayon qiladilar. Chunonchi marhamat qiladilarki: «Birodaring yuziga tabassum bilan boqishing ham sadaqadir. Amri ma’ruf, nahyi munkar qilishing ham sadaqadir. Adashgan kishini to‘g‘ri yo‘lga yo‘llab qo‘yishing, zo‘ravonlik qiluvchi yomon odamning aziyatiga sabr qilib turishing, yo‘lda yotgan tosh yoki tikanni olib tashlashing va chelagingdagi olgan suvingni birodaring chelagiga quyib berishing ham barchasi sadaqa hukmidadir».

On hazrat o‘z hadisi shariflarida ko‘proq xalqqa pandu nasihat qilib turishga, turli jinoyat va zulm ishlaridan ularni qaytarib turishga buyuradilar. Chunki olamning tinchligi shu yo‘l bilan ta’minlanib turadi, deb uqtiradilar. Masalan, bir hadislarida shunday deyiladi: «Qasamyod qilamanki, sizlar odamlarni yaxshilikka buyurib, yomonliklardan qaytarib turasizlar, aks holda Alloh taolo boshlaringga shunday bir baloni yuboradiki, qilgan duolaring ham ijobat bo‘lmay qoladi».

Yana bir hadislarida aytadilar: «Zulm qiluvchi zolim birodaringga ham, zulm qilinuvchi birodaringga ham yordam qil. Zolimga yordam berish qanday bo‘ladi?» - deb so‘raganlarida javob beradilarki: «Zolimning qo‘lidan tutib zulmdan to‘xtatib qolishing - unga qilgan yordaming bo‘ladi».

Payg‘ambar (sallollohu alayhi vasallam) bizlarga murojaat qilib jinoyatchi osiy bandalarni imkoni boricha turli vositalar bilan ommaga zarar keltirishdan va Allohga gunohkor bo‘lishidan saqlab qolishga buyuradilar. Chunonchi Termiziyning “Sunan” asaridagi ushbu hadisi sharifda bu mazmun kuyidagicha ifoda etilgandir: «Sizlarning qaysi birlaringiz biror jinoiy ishni qilinayotganini ko‘rib qolsangiz darhol uni qo‘lingiz bilan to‘xtating. Agar bunga imkoniyatingiz bo‘lmasa tilingiz bilan qaytaring. Bordiyu buni xam bajara olmasangiz dilingiz bilan nafratlanib turing. Lekin bunisi iymoni zaif kishining ishidir».

Imom Termiziy keltirgan hadisi shariflar orasida Rasulullohning (sallollohu alayhi vasallam) nohaq mardum qonini to‘kishidan qaytargan va qotillikni gunohi kabiralardan hisoblangan hadislari ham mavjuddir. Bu Alloh taoloning xitobi ilohiysiga ham hamohangdir. Chunonchi oyati karimada aytiladiki: **«Keling, Robbingiz sizlarga harom qilgan narsalarni tilovat qilib beraman: «Unga hech narsani shirk keltirmang! Ota-onangizga yaxshilik qiling! Ochlikdan qo‘rqib, bolalaringizni o‘ldirmang. Biz sizlarni ham, ularni ham rizqlantirurmiz. Fahsh – buzuq ishlarning oshkorasiga ham, maxfiysiga ham yaqinlashmang. Alloh harom qilgan jonni o‘ldirmang. Magar haq ila bo‘lsa, mayli». Ushbularni sizga amr qildikki, shoyad, aql yuritsangiz», deb ayt»** (An’om surasi, 151-oyat).

Bunga hamohang qilib janob paygambarimiz (sallollohu alayhi vasallam) shunday deganlar: «Mabodo Yeru osmon ahlining barchasi bir mo‘min qonining nohaq to‘kilishida ishtirok etsalar, Alloh taolo ularning hammasini do‘zaxga mahkum etgan bo‘lar edi».

Yana bir hadislarida shunday xabar beradilar: «Alloh taoloning nazdida bir musulmon kishining nohaq qatl etilishidan ko‘ra yorug‘ dunyoning barbod bo‘lib ketishi yengilroqdir».

Rasuli akram (sallollohu alayhi vasallam) bunday og‘ir jinoyatning oqibatidan darak berib yana shunday deganlar: «Qiyomat kuni bandalardan so‘raladigan savol-javobning birinchisi nohaq to‘kilgan qon to‘g‘risida bo‘lur».

Rasulullоh (sallollohu alayhi vasallam) Allohning ko‘rsatmalariga suyangan holda Islom jamiyatini isloh etishga harakat qilar edilar. O‘zlarining hikmatomuz so‘zlarini oyati karimlarning

fayzli buloqlaridan oladilar. Chunonchi bunga Haq taoloning O‘zi guvohlik berardiki: «1. Botayotgan yulduz bilan qasam. 2. Birodaringiz adashgani ham yo‘q, yo‘ldan ozgani ham yo‘q. 3. (U) havodan nutq qilmas. 4. U (Qur’on) vahiydan o‘zga narsa emas. 5. U (Muhammad)ga shiddatli quvvat egasi ta’lim berdi». (Najm surasi, 1-5 oyatlar).

On Hazrat ummatlarini kechirimli, mehr-shafqatli bo‘lishga, yaxshi munosabat, saxovat, iffat, silai rahmga, yetimlarga g‘amxo‘rlik qilish kabi insoniy fazilatlarga va odobu axloqli bo‘lishga chaqirganlar.

Shunday da’vatlar jumlasidan quyidagi durdona so‘zlarini keltirish mumkin: «Musulmon musulmonga birodardir. Binobarin ular bir-birlariga zulmu xorlikni ravo ko‘rmaydilar. Kimki birodarining hojatini ravo qilsa Alloh taolo ham uning hojatini ravo qilur. Kimiki birovlarning musibatini yengillashtirsa Alloh taolo uning oxiratdagi g‘am-tashvishlarini yengillashtiradi. Kimki bir musulmonning aybini yopsa Allohi taolo uning qiyomat kunidagi ayblarini yopadi».

Yana: «Alloh aytadi: men Allohdurman. Men Rahmondurman. Rahm so‘zi mening nomimdan olingandir. Kimki qarindosh-urug‘lariga silai rahm qilsa, men ham unga rahmu shafqat qilurman. Yaqinlaridan uzilishib ketgan kishidan men ham uzilishib ketaman».

Yana Rasulullоh (sallollohu alayhi vasallam) aytadilarki: «Yetimni tarbiya etgan odam bilan Men jannatda mana shu ikki barmoqlardek yonma-yon bo‘lurmiz, deb ko‘r-satkich va o‘rta barmoqlarini ko‘rsatgan ekanlar».

Yana shu mazmunda hadis vorid bo‘lgankim: «Ro‘za, namoz va sadaqaning darajalaridan ham ulug‘ daraja bu o‘rtani yarashtirishdir. Zero oraning buzilishi qirg‘in keltiradi».

Yana shunday marhamat qiladilar: «Haqiqiy musulmon ulkim, uning tilidan va qo‘lidan musulmonlarga aziyat yetmaydi. Haqiqiy mo‘min ulkim, uning dastidan odam-larning molu jonlari omonda bo‘ladi».

Shuningdek, Rasulullohning (sallollohu alayhi vasallam) muborak hadislarida bir millatning ustidan ikkinchi millat kulmasligi kabi g‘oyalar joy olgan. Bu ma’no Allohning kalomi sharifi-dagi ushbu oyati karimaga asoslanadi: «Ey iymon keltirganlar! Bir qavm boshqasini masxara qilmasin, ehtimol, ular bulardan yaxshiroqdir. Va ayollar ham boshqa ayollarni (masxara qilmasin), ehtimol, ular bulardan yaxshiroqdir. Va o‘zingizni o‘zingiz mazax qilmang, bir-biringizga laqab qo‘ymang. Iymondan keyin fosiqlik ismi naqadar yomon! Va kim tavba qilmasa, bas, ana o‘shalar, o‘zlari zolimlardir». (Hujurot surasi, 11-oyat).

Alloh taoloning o‘zi guvohlik beradikim, uning roziligini topish faqat taqvo bilan bo‘ladi, u yoki bu xalqqa mansub bo‘lish bilan afzallik hosil bo‘lmaydi. Chunonchi Haq taolo: «Albatta, Allohning huzurida eng hurmatligingiz eng taqvodoringizdir», – deb guvohlik beradi (Hujurot surasi, 13-oyat).

Yana bir hadislarida aytadilar: «Arabning ajam (arab bo‘lmagan) ustidan, yoki ajamning arab ustidan, oqtanlining qoratanli ustidan, yoki qoratanlining oqtanli ustidan hech qanday afzalligi yo‘q. Faqat taqvo bilangina (afzallik bo‘ladi)» (Imom Ahmad rivoyati).

Rosulullоh (sallollohu alayhi vasallam) ummatlariga vasiyat qilib ahlu ayollar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga chorlaydilar. Chunonchi aytadilar: «Sizlarning yaxshilaringiz o‘z ahlu ayollariga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘ladiganlaringizdir. Ichingizda ahliga nisbatan eng yaxshi munosabatda bo‘ladiganingiz menman».

Yana aytadilarki: «Ruxsat berilgan halol ishlar ichi da Alloh taologa yoqimsizrog‘i bu taloqdir» (Abu Dovud va Ibn Moja rivoyati).

Islom dini bizlarni o‘z aqlimiz, sog‘lig‘imiz, molu dunyomiz, obro‘ va sharafimizni saqlab borishimizga buyuradi. Bu bilan u odamlarni ikki dunyo saodatiga muvaffak etishga harakat qiladi. Shuning uchun Islom aqlga, badanga zararli, boylik va obro‘ni ketkazadigan har qanday narsalarni

